

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
GEOGRAFIYA O`QITISH METODIKASI
KAFEDRASI

B. H. KALONOV, YO. R. BURANOV

**«MARKAZIY OSIYO IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI»
FANIDAN**

AMALIY MASHG`ULOTLAR

USLUBIY QO`LLANMA

(5110500 -Geografiya o`qitish metodikasi ta'lim yo`nalishi)



Navoiy – 2015

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**GEOGRAFIYA O`QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

B. H. Kalonov, Yo. R. Buranov

**«MARKAZIY OSIYO IQTISODIY VA IJTIMOIIY
GEOGRAFIYASI»
FANIDAN**

AMALIY MASHG`ULOTLAR

USLUBIY QO`LLANMA

(5110500 -Geografiya o`qitish metodikasi ta'lim yo`nalishi)

Navoiy – 2015

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 2012 yil 14 martda tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

g.f.n., dots. B. H. Kalonov

kat. o'qit Yo. R. Buranov

Taqrizchilar:

g.f.n., dots. Yu. B. Raxmatov

NavDPI, Geografiya va uni o'qitish
metodikasi kafedrası dotsenti

g.f.n. A. M. Mavlonov

Buxoro davlat Universiteti
Tuproqshunoslik va geografiya
kafedrası katta o'qituvchisi

Mazkur uslubiy qo'llanma Navoiy davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashining 2015 yil 28 yanvardagi 6-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

5110500 – “Geografiya o`qitish metodikasi” va 5440500 – “Geografiya” bakalavr ta`lim yo`nalishlari bo`yicha malakali mutaxassislar tayyorlaydigan O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim muassasalarida “Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani o`qitiladi. U mazkur yo`nalishlar bo`yicha ixtisoslashgan talabalar uchun asosiy kurs hisoblanadi. Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining geografiya fanlar tizimidagi farqli jihati shundaki, u talabalarga mintaqamizda joylashgan, ya`ni Respublikamizga qo`shni bo`lgan davlatlar geografiyasini o`rgatadi. Ushbu o`quv kursi talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan, Vatanni sevrishga undan faxrlanishga, uni borlig`ini e`zozlashga undaydigan fandir. Shu bois bo`lsa kerak, geografiya O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov nazariga tushgan fanlardan biri. Prezidentimizning Respublika Oliy Majlisi minbaridan turib, “Vatan tarixi va madaniyatini, geografiyasi va iqtisodini, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o`rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bog`chalardan tortib oliy o`quv yurtlarigacha bo`lgan ta`lim tarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o`qitishga siyosiy vazifa sifatida qaralmog`i lozim” deb ta`kidlaganlari geografiya faniga berilgan ijobiy bahodir.

Markaziy Osiyo deganda siyosiy jihatdan Yevrosiyo materigining ichki qismida joylashgan Qozog`iston, O`zbekiston, Turkmaniston, Qirg`iziston, Tojikiston davlatlari egallagan hududlar tushuniladi. Markaziy Osiyoning tabiiy geografik chegaralari siyosiy va etnik chegaralarga to`la mos kelmaydi. Ana shuning uchun ham uning tabiiy geografik chegaralarini o`tkazishda o`lkaning geologik jihatdan rivojlanishi hamda rel`yefining tuzilishini hisobga olish ijobiy natijalarga olib keladi.

“Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” o`quv kursi pedagogika o`quv yurtlaridagi tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik bilimlar majmuasining eng muhim fanlaridan biridir. Bu fanni o`rganish orqali bo`lajak o`qituvchilar o`zi yashab turgan o`lkaning tabiiy-geografik sharoitini, iqtisodiy-ijtimoiy holatini, so`nggi yillarda vujudga kelayotgan xilma-xil geoeologik muammolarni, tabiiy va mehnat resurslarini hamda hududda ro`y berayotgan salbiy tabiiy geografik jarayonlarni va ularni oldini olish haqidagi hozirgi zamon bilimlariga ega bo`ladi.

Ushbu “Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani amaliy mashg`ulotlarida o`lkaning geografik o`rni va uning o`ziga xos xususiyatlarini, iqtisodiy va siyosiy joylanishi, aholisi va mehnat resurslari, xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlari, sanoati va qishloq xo`jaligi, transporti haqida bilim olasiz. Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar haqida tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy bilimlarga ega bo`lasiz. Ayniqsa bu davlatlarning mustaqillik yillaridagi ijobiy yutuqlari, iqtisodiyotdagi tub burulishlar bo`lganligini va ular haqida mavjud bo`lgan bilimlarini yanada rivojlantiradilar.

“Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining oliy o`quv dargohlarida o`qitilishi bu hududda yashovchi o`zbek, qozoq, turkman, tojik, qirg`iz, qoraqalpoq xalqlarining qadimiy milliy qadriyatlarini hurmat qilishga, o`tmishdagi ajdodlarimizdan hozirga qadar saqlanib kelinayotgan eng aziz bo`lgan Ona Vatan tuyg`usini mustaqillik sharofati bilan qayta tiklashga, diniy, madaniy birligimizni yanada yuqori bosqichlarga olib chiqishimizga yordam berishi muqarrardir.

Uslubiy qo`llanma Navoiy davlat pedagogika instituti “Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrasida dotsenti, g.f.n. B.H.Kalonov va ushbu kafedra katta o`qituvchisi Yo.R.Buranovlar tomonidan tayyorlandi. Mualliflar uslubiy qo`llanmani tahrir qilib chiqib, o`z mulohazalari bilan qo`llanmaning sifatini yaxshilashga yordam bergan taqrizchilar NavDPI Geografiya o`qitish metodikasi kafedrasida dotsenti Yu. B. Raxmatov va BuxDU Tuproqshunoslik va geografiya kafedrasida katta o`qituvchisi g.f.n. A. M. Mavlonovlarga samimiy minnatdorchilik bildiradi hamda mazkur qo`llanma haqidagi barcha fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi.



Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy kartasi

Mavzu: Markaziy Osiyo mamlakatlari dunyo kartasida

Maqsad: Turkiston o'lkasi, Turkiston general gubernatorligi, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo tushunchalarini tahlil qilish, Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy geografik o'rnini belgilash va ularni dunyo siyosiy kartasidagi o'rnini aniqlash.

Dars jihozi: Dunyo, MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlariga tegishli tabiiy va iqtisodiy kartalar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro'ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Алисов В., Хореев А. Экономическая и социальная география мира. М.: Просвещение, 2001.
8. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. Т.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Adabiyotlardan foydalanib Turon, Turkiston, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo atamalarini o'rganib, amaliyot daftariga tavsiflab yozing.

2-topshiriq. Markaziy Osiyo siyosiy kartasining shakllanish bosqichlarini tahlil qilish.

3-topshiriq. Markaziy Osiyo hududida joylashgan davlatlarni o'rganib, ular bo'yicha ma'lumotlar to'plang va 1-jadvalni to'ldiring.

Metodik ko'rsatma. Geografik atlaslar va o'quv manbalari asosida jadvalni to'ldiring.

1-jadval

t/r	Davlatlarning nomi	Maydoni (ming km. kv. hisobida)	Aholisi (ming kishi)
1	Qozog'iston		
2	Turkmaniston		
3	O'zbekiston		
4	Qirg'iziston		
5	Tojikiston		
6	Markaziy Osiyo mintaqasi		

4-topshiriq. Markaziy Osiyoning siyosiy kartasini yozuvsiz kartaga tushiring, poytaxtlarni, yirik shaharlari va chegaralarini belgilang. Markaziy Osiyo mamlakatlari egallagan hududning chegaralarini belgilang. Mustaqil Respublikalar chegaralarini ajrating.

**Metodik ko`rsatma.** Markaziy Osiyo hududining quruqlikdan o`tgan chegarasini qizil rangda, suvlikdan o`tgan chegarasini ko`k rangda ko`rsating. Chegaradosh davlatlarni belgilang va nomlarini yozib chiqing.



Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy kartasi

5-topshiriq. Markaziy Osiyo hududi bilan chegaradosh qo`shni davlatlar o`rtasidagi chegara uzunligini masshtab orqali aniqlang va 2-jadval to`ldiring.

2-jadval

t/r	Davlatlarning nomi	Chegara uzunligi (km.hisob.)	Qo`shni davlat(lar) nomi
1			
2			
3			
4			
5			
6	Mintaqa maydoni		

Mavzu: Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari

Maqsad: Markaziy Osiyo hududidagi tabiat resurslariga xo'jalik nuqtai nazaridan umumiy baho berish, turli resurslar bilan ta'minlanganligini, hududlarda joylashish xususiyatlarini va miqdorini (zaxirasini) belgilash, talabalarni iqtisodiy kartalarni o'qish va tahlil qilishga, statistik materiallardan foydalanishga ko'nikma va malaka hosil qildirish, karta sxema, diagramma chizishga o'rgatish.

Dars jihozi: Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarni o'zida aks ettirgan kartalar, atlaslar, statistik ma'lumotlar, diagrammalar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro'ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Алисов В., Хореев А. Экономическая и социальная география мира. М.: Просвещение, 2001.
8. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. Т.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Mavzu uchun berilgan adabiyotlardan va kartalardan foydalanib, Markaziy Osiyo davlatlarida tabiiy resurslarni joylashishi hamda ularni o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rganib, amaliyot daftariga ma'lumot yozing. Markaziy Osiyoda qaysi tabiiy boyliklar (foydali qazilmalar, gidroenergo resurslar, yer resurslari va boshqa boyliklar) ko'p yoki kamligini tushuntiring.

2-topshiriq. Markaziy Osiyoning tabiiy, iqtisodiy geografik kartalaridan va atlaslardan foydalanib, yozuvsiz kartaga Markaziy Osiyodagi mavjud tabiiy boyliklarning geografik joylashishini hamda konlarning nomlarini tushiring.

Metodik ko'rsatma: Yozuvsiz kartada (2-vazifa) yoqilg'i, rudali va norudali foydali qazilmalarning markazlarini shartli belgilar asosda ko'rsating. Shuningdek, ularning tarqalgan maydonlari chegaralarini ham tushiring

3-topshiriq. Atlas va undagi foydali qazilmalar kartasidan foydalanib, 3-jadvalni to'ldiring. Markaziy Osiyoning qaysi rayonlarida tabiiy resurslar (neft, gaz, metalli, foydali qazilmalar, nometal foydali qazilmalar) ko'p va katta zahiraga ega va qaysi rayonlarida ularning zahiralari kam ekanligini tavsiflang.

3-jadval

t/r	Tabiiy resurslar nomi	Qayerda joylashgan	Umumiy zahirasi	Foydali qazilmalarning qaysi turiga kiradi?
1	Ko`mir			Yoqilg`i
2	Neft			Yoqilg`i
3	Gaz			Yoqilg`i
4	Temir rudasi			Ruda
5	Fosforit			Noruda

4-topshiriq. Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Markaziy Osiyo mamlakatlari tabiiy resurslar bo'yicha sobiq Ittifoqda qanday o'rinda turganligini tahlil qiling (umumiy miqdorga nisbatan % hisobida). Sobiq Ittifoq iqtisodiy zonalarining tabiiy resurslar va aholi bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlang. Xulosa chiqaring: Janubiy – sharqiy iqtisodiy zonaning iqtisodiy zonalar o'rtasidagi mavqeini aniqlang (sobiq Ittifoqda).

4- jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarining (sobiq Janubiy –sharqiy zona) hissasi

№	Tabiiy resurslar	Iqtisodiy zonalar			Umumiy %
		G`arbiy	Sharqiy	Janubiy-sharqiy	
1	Hududi	25	57	18	100
2	Aholisi	72	11	17	100
3	Tabiiy potentsiali	44	32	24	100
4	Gidroenergiya potentsionali	18	63	19	100
5	Toshko`mir resursi	15	76	62	100
6	Gaz resursi	12	77	11	100
7	Temir rudasi resursi	42	51	7	100
8	Suv resursi	18	70	12	100
9	Yer resursi (haydaladigan)	65	15	20	100
10	O`rmon resursi	25	75	-	100

**Metodik ko`rsatma:** Jadval ma'lumotlaridan foydalanib stolbasimon diagramma tuzing. Uning balandligini 10 sm, enini 2 sm qilib oling. G`arbiy iqtisodiy zonani qizil. Sharqiy zonani havorang, Janubiy – sharqiy zonani jigarrang tusda belgilang. Har bir iqtisodiy zonada aholining asosiy tabiat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini belgilash uchun resurslar hissasini aholi hissasiga bo'ling va xulosa chiqaring. Tahlil natijasini guruhda birgalikda muhokama qiling. Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida asosiy tabiat resurslari bilan aholi qanday ta'minlangan

ekanligini bilib olasiz. Bu kelajakda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni taqozo etadi.

Mavzu: Markaziy Osiyo malakatlarining aholisi va mehnat resurslari

Maqsad: Mavzu mazmunini amaliyot ishlari orqali talabalarga yetkazishda aholining umumiy soni, tabiiy o'sish ko'rsatkichi, zichligi, tug'ilish va o'lim koeffisienti hamda bu ko'rsatkichlarning Markaziy Osiyo hududida joylashgan Mustaqil Respublikalarda qanday taqsimlanganligini tahlil qilish. Kartografik va statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, ma'lumotlarni taqqoslash, aholi umumiy sonining o'zgarishini va shu mintaqaga xos bo'lgan demografik muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash.

Dars jihozi: Dunyo, MDH mamlakatlarining, shu jumladan Markaziy Osiyo aholi geografiyasiga xos bo'lgan kartalar, jadval, diagrammalar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro'ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Алисов В., Хореев А. Экономическая и социальная география мира. М.: Просвещение, 2001.
8. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. Т.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Markaziy Osiyo aholisining dinamikasi jadvalini tuzish, aholining o'sish sur'atlarini aniqlash va tahlil qilish. Aholining yillar bo'yicha tabiiy va mexanik harakatini tahlil qilish.

2-topshiriq. Aholining Markaziy Osiyoda geografik tarqalishini yozuvsiz kartaga tushirish. Kartada shaharlarning katta-kichikligini ko'rsatish.

3-topshiriq. Aholi geografiyasiga oid adabiyotlarni o'rganib chiqing. Markaziy Osiyo davlatlarida umumiy tug'ilish va o'lim, yosh (chaqaloq) bolalar o'limi koeffisientlarini aniqlang hamda 5 va 6 jadvallardagi ma'lumotlar bilan taqqoslab tahlil qiling.

Tug'ilish va o'lish ko'ffisienti darajasini baholash shkalasi

Tug'ilish umumiy ko'ffisienti	Tug'ilish ko'ffisientining tavsifi	O'limning umumiy ko'ffisienti	O'lim ko'ffisientining tavsifi
10 gacha	Favqulodda past holat	7 gacha	Juda past daraja
10-15	Juda past daraja	7-8	Past daraja
16-20	Past daraja	9-10	O'rta darajadan pastroq
21-25	O'rta daraja (ko'rsatkich o'lim ko'rsatkichidan past bo'lgan sharoitda aholini ortishiga olib boradi).	11-12	O'rtacha daraja
26-30	O'rtacha darajadan baland	13-15	O'rtacha darajadan baland
31-40	Baland daraja (yuqori ko'rsatkich)	16-20	Yuqori ko'rsatkich
41-50	Juda yuqori ko'rsatkich	20 dan ortiq	Juda yuqori (baland ko'rsatkich)
50 va undan katta	Me'yoridan ortiq ko'rsatkich, fiziologik maksimum		

Yosh (chaqaloq) bolalar o'limi ko'ffisienti darajasi shkalasi

Chaqaloq bolalar o'limi ko'ffisienti (1000 ta tug'ilganlar hisobidan bir yosh etmay o'lganlar)	Koeffisient tavsifi
20 gacha	Juda past ko'rsatkich
20-34	Past ko'rsatkich
35-49	O'rtacha ko'rsatkich
50-74	Yuqori (baland) ko'rsatkich
75-99	Juda yuqori ko'rsatkich
100 va undan ortiq	Favqulodda yuqori ko'rsatkich

Metodik ko'rsatma: Manbalar yordamida Markaziy Osiyo mamalakatlari tug'ilish va o'lim (1000 kishi hisobiga) va chaqaloq bolalar o'limi (1000 ta tirik tug'ilgan chaqaloqlar 1-yoshga yetmagan) miqdori aniqlanadi, so'ng ularning ko'ffisientlari tavsiflanadi. Shuningdek, tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish ko'rsatkichlari taqqoslanadi.

4-topshiriq. Markaziy Osiyo regionida geodemografik jarayonlarning taraqqiyoti mavzusida ma'ruza tayyorlang. Ma'ruza matnini tayyorlash quyidagi rejaga amal qiling.

1. Regiondagi umumiy aholi soni, shu jumladan shahar va qishloq aholisi.

2. Regionda aholining tabiiy harakati (o`sishi) va migratsiya jarayoni.
3. Etnik jarayonlarning xususiyatlari.
4. Shahar aholisi va shaharlar. Urbanizatsiya muammolari.
5. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi.
6. Qishloq aholisi va qishloqlar
7. Regionda aholining joylashuvi va zichligi
8. Regionda demografik siyosat.

Metodik ko`rsatma: Avvalom bor mavzular mazmunini ifoda etadigan manbalar topilishi kerak. Ma'lumotlar aniq va to'liq bo'lishligiga e'tibor qarating. Ma'ruzani to'liq bayon etilishini ta'minlash uchun jadval, grafik, karta-sxemalar berishni unutmang.

Mavzu: Markaziy Osiyo davlatlari xalq xo`jaligi. Yoqilg`i –energetika majmuasi

Maqsad: Mashg`ulot mavzusi mazmuni orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarning sanoat tarmoqlarini tuzilishi, rivojlanish ko`rsatkichi, ularni belgilovchi omillar va imkoniyatlarni tahlil qilish. Sanoat tarmoqlari va ularning ishlab chiqarish salohiyatiga oid kartografik materiallarni qiyoslash, taqqoslash ko`nikmasini shakllantirish, ularning istiqbollarini belgilashdan iborat.

Dars jihozi: Taqvim reja, mavzu bo'yicha ishlanma, sanoat tarmoqlariga oid kartalar, atlaslar, yozuvsiz kartalar va davriy matbuot materiallari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G`.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg`ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro`ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Алисов В., Хореев А. Экономическая и социальная география мира. М.: Просвещение, 2001.
8. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. Т.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Adabiyotlar va boshqa manbalardan foydalanib, Markaziy Osiyo davlatlarida xalq xo`jaligining tarkibiy tuzulishini o`rganing. Asosiy va yetakchi

sanoat tarmoqlarini aniqlang, ularni xalq xo'jaligidagi ahamiyatini ta'riflang. Statistik ma'lumotlar asosida o'sish sura'tlarini tavsiflang.

2-topshiriq. Markaziy Osiyo davlatlarida yo'qilg'i (ko'mir, neft, tabiiy gaz) sanoati tarmoqlarining rivojlanishini statistik ma'lumotlar yordamida o'rganib chiqing va tavsiflab yozing.

3-topshiriq. Markaziy Osiyo davlatlari energetika sanoatida AES, GES, IESlarning ulushini tahlil qiling.

Mavzu: Markaziy Osiyo metallurgiya va mashinasozlik sanoat tarmoqlari

Maqsad: Markaziy Osiyoda qora va rangli metallurgiya sanoati xom-ashyo markazlari, asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari hamda ba'zi bir mahsulotlarning ishlab chiqarish ko'rsatkichi haqida kartografik, statistik ma'lumotlarni bilish ko'nikma va malaka hosil qilish.

Dars jihozi: Tabiiy va siyosiy ma'muriy kartalar, 9- sinf atlas, 7-sinf atlas.

Adabiyotlar:


1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro'ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. T.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Adabiyotlar, atlas, iqtisodiy kartalar foydalanib, Markaziy Osiyo davlatlaridagi qora va rangli metallurgiya sanoatining yirik markazlarini hamda asosiy korxonalarini aniqlang. Statistik ma'lumotlar asosida qora va rangli metallurgiya sanoatining ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qiling.

2-topshiriq. Atlas ma'lumotlaridan foydalanib, yozuvsiz kartada Markaziy Osiyo davlatlaridagi mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmoqlarining asosiy markazlarini tushiring.

3-topshiriq. Markaziy Osiyo davlatlarida mashinasozlik sanoatini hududiy joylashuvi va rivojlanishini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, daftarga yozing.



Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy kartasi

Mavzu: Markaziy Osiyo kimyo sanoati

Maqsad: Manbalar asosida Markaziy Osiyoda kimyo sanoati tarmoqlarining shakllanishi, joylashuvi hamda ularni ishlab chiqarish hajmi va istiqbollari haqida malaka, ko'nikma va tushuncha hosil qildirish.

Dars jihozi: Kimyo sanoatiga oid karta, rasm, sxema va jadval ma'lumotlari, taqvim reja, amaliy ish ishlanmasi, 9-sinf atlas, 7-sinf atlas.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro'ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. T.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Adabiyotlar, atlas va boshqa manbalardan foydalanib, Markaziy Osiyo davlatlarida mavjud kimyo sanoati tarmoqlarini aniqlang.

2-topshiriq. Markaziy Osiyodagi kimyo sanoati rivojlangan hududlarni o'rganib, tahlil qiling va daftaringizga yozing.

3-topshiriq. Maktab atlaslaridan foydalanib, kimyo sanoati markazlarini yozuvsiz kartaga shartli belgilar asosida tushiring.

Mavzu: Markaziy Osiyo davlatlarining qishloq xo'jaligi

Maqsad: Markaziy Osiyo davlatlarida qishloq xo'jalik tarmoqlarini geografik joylashuvini belgilash, eng yirik qishloq xo'jalik rayonlarini aniqlash, mamlakatlar bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini tahlil qilishdan iborat.

Dars jihozi: Ma'ruza matni, O'rta Osiyo va Qozog'iston tabiiy va iqtisodiy kartalari, maktab atlas.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.

4. Pardayev G`P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg`ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro`ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. Т.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotida qishloq xo`jaligining tutgan o`rni, rivojlanish bosqichlari, ahamiyati va uning tarkibiy tuzulishi, respublikalararo tafovutlarni hamda amalga oshrilayotgan islohotlarni o`rganib, tavsiflab yozing.

2-topshiriq. Statistik ma`lumotlaridan foydalanib, Markaziy Osiyo davlatlarida asosiy qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish ko`rsatkichini tahlil qiling, 7-jadvalni to`ldiring va davlatlararo o`rnini belgilang.

7-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarida asosiy qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish

t/r	Mamlakatlar	G`alla yetishtirish (mln.t.hisob)		Kartoshka (mln.t.hisob)		Go`sht (ming t.hisob)		Sut (ming.t.hisob)	
		miqdori	o`rni	miqdori	o`rni	miqdori	o`rni	miqdori	o`rni
1	Qozog`iston								
2	Qirg`iziston								
3	O`zbekiston								
4	Tojikiston								
5	Turkmaniston								

3-topshiriq. Jadval ma`lumoti asosida Markaziy Osiyo mamlakatlarida g`alla, kartoshka, go`sht va sut yerishtirish ko`rsatkichlari bo`yicha doiraviy diagramma tuzing.

4-topshiriq. Atlas yordamida yozuvsiz kartaga Markaziy Osiyo davlatlaridagi asosiy qishloq xo`jalik rayonlarini, sug`orma va lalmi dehqonchilik hududlarini tushiring hamda tahlil qiling.

Mavzu: Markaziy Osiyo transport tarmoqlari geografiyasi

Maqsad: Markaziy Osiyodagi asosiy transport turlari, ularning hududlar bo`yicha joylashuvi va ahamiyatini bilish

Dars jihozi: Tabiiy va siyosiy ma`muriy hudud transport tarmoqlari kartalari, jadval ma`lumotlari, rasm, diagrammalar, maktab atlaslari

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro'ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. T.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Markaziy Osiyo transport turlariga ularning ahamiyatiga qarab baho bering. Har bir davlatda qaysi transport turi eng ahamiyatli ekanligini aniqlang va tahlil qiling.

2-topshiriq. Karta ma'lumotlaridan foydalanib, asosiy transport va aloqa yo'llarini yozuvsiz kartaga belgilang.

3-topshiriq. Karta ma'lumotlaridan foydalanib, xalqaro aeroportlar, mahalliy aeroportlar, portlar va pristanlarni belgilang.

4-topshiriq. Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo davlatlarini qo'shni mintaq va davlatlar bilan aloqalarini rivojlantirish uchun barpo etilgan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan transport yo'llari haqida ma'lumot bering. (Traseka, Mashhad-Seraxs-Tajan, Andijon-O'sh-Qashg'ar temir va avtomobil yo'llari).

Mavzu: Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy aloqalari

Maqsad: Markaziy Osiyo davlatlarini tashqi savdo tarkibining darajasi, tashqi savdoning umumiy hajmida eksport va importning uzunligi to'g'risida talabalarga malaka, ko'nikma va bilim hosil qildirish.

Dars jihozi: Maktab atlaslari, jadval ma'lumotlari, rasm-sxema, gazeta va jurnallar ma'lumotlari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.

5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: “Kamalak”, 2013.
6. Ro`ziyev A. “Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”. Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мира статистический сборник. T.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Statistik ma`lumotlar va boshqa manbalardan asosida Qozog`iston Respublikasi va Tojikiston Respublikasining eksport va import salohiyatlarini o`rganib, tahlil qiling va daftarga yozing.

2-topshiriq. Statistik ma`lumotlar va boshqa manbalardan foydalanib, Turkmaniston va Qirgiziston Respublikalarining eksport va import salohiyatlarini o`rganib, tahlil qiling.

3-topshiriq. Qozog`iston, Turkmaniston, Qirg`iziston va Tojikiston Respublikalarining O`zbekiston Respublikasi bilan tashqi aloqalarini o`rganib tahlil qiling va daftarga yozing.

QOZOG`ISTON RESPUBLIKASI

Mavzu: Qozog`iston Respublikasining geografik o`rni, tabiiy resurslari va ma`muriy hududiy bo`linishi

Maqsad: Amaliy ish orqali talabalarga Qozogiston Respublikasining tabiiy va iqtisodiy geografik o`rni, uning dunyoni iqtisodiy va siyosiy kartasidagi o`rni, hamda ma`muriy – hududiy bo`linishi haqida bilim berish, ko`nikma va malaka hosil qildirish.

Dars jihozi: MDH, MO, dunyoning iqtisodiy, siyosiy kartalari, jadval ma`lumotlari, kontur karta va atlaslar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O`zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O`qituvchi», 1994.
3. O`zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O`qituvchi, 1997.
4. Pardayev G`.P., Hunarov A. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” (amaliy mashg`ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: “Kamalak”, 2013.
6. Ro`ziyev A. “Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”. Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мира статистический сборник. T.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Ma'ruza matni boyicha tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib "Qozog'iston Respublikasining tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni"ga baho bering. Qozog'istonga xos bo'lgan muammolarni aniqlang va amaliyot daftarda qisqa holda tasvirlang.

2-topshiriq. Atlas va kartalardan foydalanib, Qozog'istonning quruqlik va suvlikdan o'tgan chegara uzunligini hamda qaysi davlatlar bilan chegaradoshligini aniqlang.

Qozog'iston respublikasi rel'yef tuzulishi

Cho'llar		44 %
Dasht		26 %
Chalacho'l		14 %
O'rmon		5.5 %



Qozog'iston Respublikasi siyosiy kartasi

3-topshiriq. Qozog`iston Respublikasiga qo`shni bo`lgan davlatlarni aniqlang va jadvalni to`ldiring.

8-jadval

t/r	Davlatlar	Poytaxti (markazi)	Chegara uzunligi	Davlat tuzilishi
1				
2				
3				
4				
5				

4-topshiriq. Atlas va maxsus kartalardan foydalanib foydali qazilma konlari markazlarini aniqlang. Manbalardan foydalangan holda ularning zahiralarini va yillik ishlab chiqarish ko`rsatkichini toping va jadvalni to`ldiring.

9-jadval

t/r	Tabiiy resurslar	Turlari	Zaxirasi t/km ³ hisobida	1 yilda ishlab chiqa - rish ko`rsatkichi (qazib olish m: m ³ hisobida)	Qaysi viloyatda joylashgan
1					
2					

5-topshiriq. Manbalardan foydalanib yozuvsiz kartada Qozog`iston respublikasi viloyatlarini belgilang. Ularning markazlari, maydoni va aholi sonini yozib chiqing, jadvalni to`ldiring.

10-jadval

Qozog`iston Respublikasining ma`muriy-hududiy bo`linishi

№	Viloyat/Shahar	Ma`muriy markazi	Maydoni, km ²	Aholisi, kishi
1	Almati (Alma-Ata) — respublikaga bo`ysinuvchi shahar			
2	Astana — respublikaga bo`ysinuvchi shahar			
3	Baykonur			
4	Akmola viloyati			
5	Aktyuba viloyati			
6	Almati viloyati			
7	Atirau viloyati			
8	Sharqiy Qozog`iston viloyati			
9	Jambul viloyati			
10	G`arbiy Qozog`iston viloyati			

№	Viloyat/Shahar	Ma`muriy markazi	Maydoni, км²	Aholisi, kishi
11	Qarag`anda viloyati			
12	Qustanay viloyati			
13	Qizilo`rda viloyati			
14	Mangistau viloyati			
15	Pavlodar viloyati			
16	Shimoliy Qozog`iston viloyati			
17	Janubiy Qozog`iston viloyati			
	Jami:			



Almati shahri ramzi



Zamonaviy Astana shahri



Zamonaviy Almati shahri



Baykanur shahridagi monument

Mavzu: Qozog`iston Respublikaning aholisi, mehnat resurslari

Maqsad: Manbalar asosida Qozogiston Respublikasining umumiy aholi soni, milliy tarkibi va aholining hududlar bo`ylab geografik taqsimoti, zichligi, qishloq va shahar aholisining nisbati, ishlab chiqarishda band aholi, uning migratsiyasi (ichki va tashqi) haqida bilimga ega bo`lish, aholi va maxsus kartalardan foydalana bilish, statistik materiallar, diagramma va katta sxemalarni tahlil etishga ko`nikma va malaka hosil qilish.

Dars jihozi: Respublika va MO ga xos bo`lgan maxsus (aholi) kartalar, atlaslar, statistik ma`lumotlar, diagramma va tarqatma materiallar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O`zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O`qituvchi», 1994.
3. O`zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O`qituvchi, 1997.
4. Pardayev G`.P., Hunarov A. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” (amaliy mashg`ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: “Kamalak”, 2013.
6. Ro`ziyev A. “Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”. Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. T.: 1994.

Topshiriqlar:

1- topshiriq. Ma`lumotlardan foydalanib Qozog`iston Respublikasida 1 km² ga to`g`ri keladigan aholi sonini aniqlang. Viloyatlar bo`yicha ma`lumotlar to`plang.

11-jadval

№	Respublika va viloyatlar	Umumiy maydoni (ming km ²)	Umumiy aholi soni (ming kishi hisobida)	1 kv.km.ga to`g`ri keladigan aholi soni	Qaysi iqtisodiy rayon tarkibiga kiradi
1	Qozog`iston				
2	Kustanay				
3	Oqtepa				

14 ta viloyatni jadvalda belgilang.

2-topshiriq. Qozog`iston aholisi milliy tarkibining mustaqillikgacha bo`lgan davrdagi va hozirgi holatini (foiz hisobida) tahlil qiling va stolbasimon diagramma tuzing. (masshtab ixtiyoriy). Aholi soni va milliy tarkibining o`zgarish sabablarini aniqlang. Respublikaning jami aholi soniga nisbatan turli millatlarning aholi sonini aniqlang.

3-topshiriq. Umumiy aholi soni, zichligi, milliy tarkibi va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha xulosalar chiqaring. Manbalardan foydalanib Qozog'iston Respublikasining aholisi va mehnat resurslari bilan bog'liq bo'lgan muammolar haqida ma'lumot yozing.

4-topshiriq. Quyidagi shaharlarda yashovchi aholi sonini aniqlang. Almati, Qaraganda, Chimkent, Pavlodar, Semipalatinsk, Ust-Kamenogorsk, Taraz.

Metodik ko'rsatma. Respublika tegishli xususiy, jumladan aholi kartasini, atlslarni toping. Adabiyotlar, kartalar hamda jadval ma'lumotlarini tahlil qiling, jadvallarni to'ldiring.

Mavzu: Qozog'iston Respublikasining yoqilg'i-energetika sanoati

Maqsad: Mamlakatdagi ko'mir, neft va tabiiy gaz konlarini aniqlash va undan iqtisodiyotda foydalanish masalalari. Elektr energetika ishlab chiqarish va uning markazlari.

Dars jihozi: Tabiiy va iqtisodiy kartalar, maktab atlslari, mamlakatda ko'mir, neft va tabiiy gaz qazib chiqarish bo'yicha ma'lumotlar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Pardayev G.P., Hunarov A. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" (amaliy mashg'ulotlar). Angren – 2004.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: "Kamalak", 2013.
6. Ro'ziyev A. "Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Termiz 2000.
7. Страны Центральной Азии в современном мире статистический сборник. T.: 1994.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Qozog'iston Respublikasidagi ko'mir, neft va tabiiy gaz konlarini aniqlash va ularni yozuvsiz kartaga tushirish.

2-topshiriq. Mamlakatdagi eng yirik gidro va issiqlik elektrostansiyalarni aniqlash va ularni yozuvsiz kartaga belgilash.

3-topshiriq. Statistik ma'lumotlardan foydalanib mamlakat yoqilg'i balansida ko'mir, neft va tabiiy gazni tutgan o'rnini doiraviy diagrammada ifodalang.



KazMunayGaz milliy neft kompaniyasining binosi



Kaspiy bo`yi neft havzasi

Mavzu: Metallurgiya mashinasozlik, kimyo va yengil sanoat tarmoqlari

Maqsad: Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va yengil sanoat tarmoqlarini mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rnini aniqlash

Dars jihozi: O`rta Osiyo va Qozog`iston tabiiy va iqtisodiy kartasi, 9-sinf geografik atlas, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va yengil sanoat tarmoqlari bo`yicha statistik ma`lumotlar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. - O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida, xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O`zbekiston», 1997.
2. O`zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. T.: O`qituvchi, 1997.
